Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.111
FILOLOGIYA

INGLIZ TA'LIM DISKURSIDA KONTAMINATSIYA, QISQARTMA, ANALITIK BIRIKMA VA SEMANTIK YANGILANISH ASOSIDA SHAKLLANGAN NEOLOGIZMLAR

Guzal Xursanovna To'rayeva*
QarDU Lingvistika kafedrasi dotsenti,
✉ guzalxursanovna22 @gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz ta'lim diskursida kontaminatsiya, qisqartma, analitik birikma va semantik yangilanish orqali shakllangan neologizmlarning tuzilishi, ma'nosi, kommunikativ vazifasi hamda barqarorlashuv mezonlari ingliz tili materiallari asosida qiyosiy ravishda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

kontaminatsiya, qisqartma, analitik birikma, semantik yangilanish, ta'lim diskursi, neologizm.

DOI: 10.5281/zenodo.21835521

Kirish

Ingliz ta'lim diskursida yangi tushunchalarni nomlash affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya bilangina cheklanmaydi. Raqamli ta'lim, xalqaro dasturlar, yangi baholash shakllari va pedagogik xizmatlarning kengayishi kontaminatsiya, qisqartma, ko'p komponentli analitik birikma hamda semantik yangilanishni faol nominativ vositalarga aylantirdi. Kontaminatsiyada ikki manba so'zning qismlari bir shaklda birlashadi; qisqartmada uzun nomning bosh harflari yoki bo'laklari saqlanadi; analitik nominatsiyada mustaqil so'zlar yagona tushunchani ifodalaydi; semantik yangilanishda esa mavjud leksema yangi ta'limiy ma'no kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu usullarning struktur xususiyatlari, ta'lim diskursidagi vazifalari va barqarorlashuv mezonlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

E. Mattiello qisqartma va kontaminatsiyalarni odatiy so'z yasash qoidalaridan qisman chetlashadigan, biroq muayyan struktur qoliplarga ega hodisalar sifatida tavsiflaydi [6, B. 64–67; 111–116]. Bu yondashuv ta'limga oid yangi birliklarni tasodifiy til o'yini emas, muntazam qo'llanish orqali barqarorlashadigan hosilalar sifatida baholashga imkon beradi. Biroq muallif umumingliz tili materialiga tayanadi; ta'lim terminlarining ilmiy maqola, rasmiy hujjat, platforma va reklama matnlarida tarqalishi alohida yoritilmaydi.

Kontaminatsiya manba birliklarning tovush yoki harf qismlarini qo'shib, ularning ma'nolarini bitta nomda birlashtiradi. L. Bauer, R. Liber va I. Plag ingliz tilidagi kontaminatsiyalarni kompozitsiyaga yaqin hodisa sifatida ko'rib, ularning formal tuzilishida qisqarish, ustma-ust kelish va komponentlar taniluvchanligi muhimligini ko'rsatadi [1, B. 455–462]. *Edutainment education* va *entertainment* qismlaridan hosil bo'lib, bilim berish bilan qiziqtirishni birlashtirgan yondashuvni bildiradi. *Webinar web* va *seminar* qismlarining qo'shilishidan yuzaga kelib, internet orqali o'tkaziladigan seminar nomiga aylangan. *Infotainment* esa axborot bilan ko'ngilochar mazmunni uyg'unlashtiradi. Bunday hosilalarning yashovchanligi talaffuz qulayligi, qismlarning tanilishi, ma'no aniqligi va turli manbalardagi takroriy qo'llanishga bog'liq.

Qisqartmalar uzun tashkilot, dastur, baholash tizimi va texnologik vosita nomlarini ixchamlashtiradi. Akronim bosh harflardan tuzilib, yaxlit so‘z sifatida talaffuz qilinadi; initsial qisqartmada esa har bir harf alohida o‘qiladi [6, B. 73–82]. *MOOC — Massive Open Online Course* va *STEM — Science, Technology, Engineering and Mathematics* akronimlardir. *LMS, AI* va *OER* esa harflab talaffuz qilinadigan qisqartmalardir. Sh. Kato, V. Galan-Muros va T. Veko *micro-credentials, digital badges* hamda *MOOCs* birliklarining ta’lim siyosatida tez faollashganini qayd etadi [4, B. 7–11]. Hisobot ularning institutsional mazmunini yoritadi, biroq struktur shakllanishini lingvistik jihatdan tahlil qilmaydi. Qisqartma dastlab to‘liq shakl bilan birga berilishi zarur; aks holda u mutaxassis uchun tanish, keng auditoriya uchun esa tushunarsiz bo‘lib qoladi. *MOOCs* ko‘plik shaklining yuzaga kelishi akronimning mustaqil leksema sifatida grammatiklashayotganini ko‘rsatadi.

Analitik birikmalar ingliz ta’lim terminologiyasining katta qismini tashkil etadi. M.-K. L’Om maxsus sohada yagona tushunchani ifodalovchi ko‘p so‘zli birliklarni ham termin sifatida qarash zarurligini asoslaydi [5, B. 5–18]. *Blended learning, flipped classroom, learning analytics, digital badge, adaptive assessment, formative feedback* va *learning management system* tashqi jihatdan erkin birikmaga o‘xshaydi, ammo komponentlar tartibining barqarorligi va aniq tushunchaga biriktirilgani bilan terminologik birlikka aylanadi. *Flipped classroom*da *classroom* bosh unsur, *flipped* esa darsning an’anaviy ketma-ketligi o‘zgarganini ko‘rsatadi. *Learning analytics*da *analytics* asosiy tushuncha, *learning* uning qo‘llanish sohasini belgilaydi. *Digital badge*da *badge* natija yoki ko‘nikmani tasdiqlovchi belgi, *digital* esa uning elektron shaklini anglatadi.

Ko‘p komponentli nomlarning uzunligi qisqa variantlarni yuzaga keltiradi. *Learning management system* bilan *LMS, massive open online course* bilan *MOOC*ning parallel qo‘llanishi analitik nominatsiya va qisqartma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Korpus tahlilida to‘liq va qisqa shakllar alohida qayd etilib, keyin bitta tushuncha bilan bog‘lanishi kerak. Aks holda bir tushunchaning faolligi ikki mustaqil birlik sifatida hisoblanadi.

Semantik yangilanishda mavjud leksema yangi ta’limiy ma’no kasb etadi. E. Traugott va R. Dasher yangi ma’no avval muayyan kontekstda yuzaga kelishi, takroriy qo‘llanish orqali esa barqarorlashishini ko‘rsatadi [9, B. 34–49]. Metaforalashuvda bir soha belgisi o‘xshashlik asosida ta’limga ko‘chadi. *Scaffold* qurilishdagi tayanch nomidan ta’lim oluvchiga vaqtincha beriladigan bosqichli yordam ma’nosiga o‘tgan. *Pathway* jismoniy yo‘ldan ta’lim bosqichlari ketma-ketligiga, *ecosystem* biologik tizimdan platforma, mazmun, foydalanuvchi va boshqaruv vositalari majmuasiga, *dashboard* esa boshqaruv panelidan natijalarni ko‘rsatuvchi raqamli oynaga ko‘chgan.

Metonimik yangilanish o‘xshashlikka emas, predmet, vazifa, muhit yoki natija o‘rtasidagi aloqaga asoslanadi. *Classroom* jismoniy xona nomidan *virtual classroom* tarkibida raqamli ta’lim muhiti va undagi o‘qitish jarayonini ham ifodalaydi. *Badge* jismoniy belgidan o‘quv natijasini tasdiqlovchi elektron belgiga, *platform* tayanch sathdan raqamli xizmat muhitiga, *tutor* esa inson o‘qituvchidan *AI tutor* tarkibida yo‘naltiruvchi dasturiy vositaga kengaygan.

Ma’no kengayishida eski mazmun saqlanib, yangi qo‘llanish sohasi qo‘shiladi. *Literacy* faqat o‘qish-yozishni emas, *digital literacy, media literacy* va *AI literacy* orqali texnologik axborotdan ongli foydalanishni ham ifodalaydi. Ma’no torayishida esa umumiy birlik maxsus ta’limiy mazmun oladi. *Credential* umumiy vakolat yoki malaka hujjatidan *micro-credential* tizimidagi muayyan o‘quv natijasini tasdiqlovchi birlikka aniqlashadi. M. Nizomova pedagogik termin mazmunining ijtimoiy vaziyat, kommunikativ maqsad va ishtirokchilar ehtiyoji bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [8, B. 26–30]. Z. Mustafoqulova esa pedagogik anglisizmlarning qabul qiluvchi tildagi ma’no o‘zgarishlarini tahlil qiladi [7, B. 95–98].

Qisqartmaning ixchamligi uning ommalashganini anglatmaydi. X. Chen rus ta’lim diskursidagi oltmishta qisqartmaning qirq beshtasi akronim ekanini, biroq ularning oz qismi keng auditoriyaga yaxshi tanishligini aniqlagan [10, B. 134–135]. Shu sababli *LMS, CPD* yoki *OER* singari birliklarning faolligi nafaqat chastota, balki mustaqil manbalar, janriy tarqalish, to‘liq shakl bilan bog‘lanish va adresatga tushunarlilik asosida baholanishi lozim.

Tahlil jarayonida har bir birlikning shakllanish usuli, to‘liq manba shakli, qisqa varianti, ma’no turi va qo‘llangan janri alohida qayd etiladi. Kontaminatsiyada qo‘shilish nuqtasi, qisqartmada talaffuz turi, analitik birikmada komponentlar tartibi, semantik neologizmda esa eski va yangi kontekstlar qiyoslanadi. Birlikning

bitta manbada ko‘p takrorlanishi keng tarqalishni bildirmagani uchun chastota bilan birga mustaqil hujjatlar soni ham hisoblanadi. Shuningdek, ilmiy, rasmiy, o‘quv-metodik, publitsistik va reklama matnlaridagi vazifalar farqlanadi. Bunday yondashuv shakliy yangilikni vaqtinchalik moda birliklaridan ajratib, neologizmning real diskursiv faolligini aniq baholashga yordam beradi. Keyingi barqarorlashuvini kuzatish imkonini beradi.

Xulosa

Kontaminatsiya ikki tushunchani ixcham va ta’sirchan nomda birlashtiradi; akronim va initsial qisqartmalar uzun nomlarni tezkor muomalaga moslashtiradi; analitik birikmalar murakkab tushunchalarning mazmuniy chegarasini belgilaydi; semantik yangilanish mavjud leksemalarni yangi pedagogik ehtiyojlarga yo‘naltiradi. *Edutainment* va *webinar* kontaminatsiya, *MOOC* va *LMS* qisqartirish, *blended learning* va *learning analytics* analitik nominatsiya, *scaffold, classroom, literacy* hamda *platform* semantik yangilanish mahsulidir. Ularning neologizmlik maqomi shakliy tuzilish bilan cheklanmaydi, dastlabki qayd, ma’no barqarorligi, mustaqil manbalardagi takror, janrlararo tarqalish va tushunarlilik asosida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bauer L., Lieber R., Plag I. The Oxford Reference Guide to English Morphology. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 704 p. – DOI: 10.1093/acprof/9780198747062.001.0001.
2. Davies M. The Corpus of Contemporary American English (COCA). – Elektron korpus. – Murojaat sanasi: 27.07.2026.
3. Davies M. NOW Corpus: News on the Web. – Elektron korpus. – Murojaat sanasi: 27.07.2026.
4. Kato S., Galán-Muros V., Weko T. The Emergence of Alternative Credentials // OECD Education Working Papers. – Paris: OECD Publishing, 2020. – No. 216. – 40 p. – DOI: 10.1787/b741f39e-en.
5. L’Homme M.-C. Lexical Semantics for Terminology: An Introduction. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2020. – 263 p. – DOI: 10.1075/tlrp.20.
6. Mattiello E. Extra-grammatical Morphology in English: Abbreviations, Blends, Reduplicatives, and Related Phenomena. – Berlin; Boston: De Gruyter Mouton, 2013. – 340 p. – DOI: 10.1515/9783110295399.
7. Mustafoqulova Z. Semantic Analysis of Anglicisms That Entered the Pedagogical Terminology of the Uzbek Language // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. 2024. J. 2. – № 3. – B. 95-98. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.foreign-linguistics.67101.
8. Nizomova M.B. Pedagogikaga oid terminlar rivojlanishida sotsiolingvistik va pragmalingvistik yondashuv (ingliz va o‘zbek tillari misolida): filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2026. – 69 b.
9. Traugott E.C., Dasher R.B. Regularity in Semantic Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 341 p. – DOI: 10.1017/CBO9780511486500.
10. Чен С. Структурно-семантические особенности аббревиации в русском образовательном дискурсе // Litera. – 2023. – № 6. – С. 128-136. – DOI: 10.25136/2409-8698.2023.6.40892.